

YOG‘OCH O‘YMAKORLIKDA QO‘LLANILADIGAN ASOSIY NAQSH TURLARI VA USLUBLARI

Xusnutdinova Fazilat Abdumananovna

*Kamoliddin Behzod nomli Milliy rassomlik
va Dizayn instituti “Tasviriy va amaliy bezak
san’ati” mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada yog‘och o‘ymakorlik san’atida qo‘llaniladigan asosiy naqsh turlari, ularning kelib chiqishi, badiiy-estetik xususiyatlari hamda amaliy qo‘llanish uslublari tahlil qilinadi. O‘zbek milliy yog‘och o‘ymakorligi misolida geometrik, islamiy va girih naqshlarning shakllanish jarayoni, ramziy ma’nolari va zamonaviy dizayndagi ahamiyati yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari milliy hunarmandchilikni saqlash va rivojlantirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: yog‘och o‘ymakorlik, naqsh, islamiy, girih, geometrik naqsh, milliy hunarmandchilik.

Аннотация: В данной научной статье анализируются основные виды орнаментов и стили, применяемые в искусстве резьбы по дереву, их происхождение, художественно-эстетические особенности и практические методы использования. На примере узбекской национальной резьбы по дереву рассматриваются процессы формирования геометрических, исламийских и гирих-орнаментов, их символическое значение и роль в современном дизайне. Результаты исследования имеют научно-практическое значение для сохранения и развития национальных ремёсел.

Ключевые слова: резьба по дереву, орнамент, исламий, гирих, геометрический узор, народные ремёсла.

Annotation: This scientific article analyzes the main types of patterns and styles used in wood carving, their origins, artistic and aesthetic characteristics, and practical application methods. Using Uzbek traditional wood carving as an example, the study examines the formation of geometric, islami, and girih patterns, their symbolic meanings, and their significance in contemporary design. The research findings are of scientific and practical importance for the preservation and development of traditional crafts.

Keywords: Wood carving, ornament, islami, girih, geometric pattern, traditional crafts.

Yog‘och o‘ymakorlik san’ati Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbek xalqining ko‘p asrlik madaniy merosida muhim o‘rin egallaydi. Yog‘och o‘ymakorligi qadimdan taraqqiy etgan amaliy san’at turlaridan biridir. O‘zbek

xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san‘ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi¹. O‘zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan san‘at turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, o‘zbek amaliy bezak san‘ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya’ni ibtidoiy jamiyatga borib taqaladi.

Ma’lumki, xalq amaliy bezak san‘ati kishilarning ma’naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o‘zbek xalq amaliy san‘ati kishilarni badiiy, axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbaalardan biri hisoblanadi.

Me’morchilik, amaliy bezak san‘ati va kundalik buyumlarda yog‘och o‘ymakorligi nafaqat estetik, balki ramziy va funksional vazifani ham bajargan. Naqshlar orqali tabiat, olam tuzilishi, diniy va falsafiy qarashlarni ham ifoda etgan.




Islimi naqshni o‘yish jarayoni. Yog‘och o‘ymakorligi qadimdan turar joylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar va saroylar bezagida keng qo‘llanilgan. Eshik, darvoza, ustun, shift va panjaralarda ishlangan naqshlar hududiy maktablar shakllanishiga olib kelgan. Buxoro, Xiva, Samarqand va Farg‘ona maktablari o‘ziga xos naqsh kompozitsiyasi va ishlov texnikasi bilan ajralib turadi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, yog‘och o‘ymakorlik naqshlari dastlab sodda geometrik shakllardan boshlangan bo‘lsa, keyinchalik murakkab islamiy va girih kompozitsiyalar bilan boyigan. Bu jarayon ustalarning tajribasi va estetik didi bilan

¹ K.G‘ulomov, Amaliy san‘at/Toshkent, “Iqtisod moliya”, 2007.

chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Yog‘och o‘ymakorligida asosiy naqsh turlari geometrik va islimi va girih naqshlar bo‘lgan.

Geometrik naqshlar yog‘och o‘ymakorlikning eng qadimgi turlaridan hisoblanadi. Ular to‘g‘ri chiziq, uchburchak, to‘rtburchak, romb, yulduzsimon shakllar asosida yaratiladi. Bunday naqshlar tartib, muvozanat va cheksizlik g‘oyasini ifodalaydi.



Yog‘och o‘ymakorlik ustaxonasi. Toshkent. Geometrik naqshlar ko‘pincha me‘moriy elementlarda, eshik va panjaralarda ishlatiladi. Ularning afzalligi aniqlik va takroriy ritmda namoyon bo‘lishidadir. Islimiy naqshlar o‘simliksimon elementlarga asoslangan bo‘lib, barg, gul, novda va shox shakllarini ifodalaydi. Bu naqshlar hayot, yangilanish va tabiat bilan uyg‘unlik ramzi hisoblanadi.

Islimiy naqshlar ko‘proq ichki bezaklarda, shift va ustunlarda qo‘llaniladi. Ular yumshoqligi va nafisligi bilan geometrik naqshlardan farq qiladi. Girih naqshlari murakkab geometrik tizimga asoslangan bo‘lib, ko‘p qirrali yulduzlar va o‘zaro bog‘langan shakllardan tashkil topadi. Ushbu naqshlar yuqori matematik aniqlik va ustalikni talab etadi. Girih naqshlari ko‘pincha tantanavor binolar va diniy inshootlarda ishlatilgan bo‘lib, u mukammallik va ilohiy tartib timsoli sifatida qaraladi.

Yog‘och o‘ymakorlik uslublari. Yog‘och o‘ymakorlikda naqshlar turli uslublarda bajariladi. Eng keng tarqalgan uslublarga quyidagilar kiradi:

- yassi o‘ymakorlik – yuzaga chuqur bo‘lmagan tarzda ishlov berish orqali naqsh hosil qilish.
- chuqur o‘ymakorlik – naqsh elementlarini aniq va hajmli ko‘rinishda ifodalash.

Panjarasimon o‘ymakorlik – o‘ymalar orqali ochiq-oydin tuzilma yaratish.

Har bir uslub ma‘lum naqsh turi bilan uyg‘unlashib, buyumning badiiy qiymatini oshiradi. Bugungi kunda yog‘och o‘ymakorlik naqshlari zamonaviy interyer va

eksteryer dizaynida qayta talqin qilinmoqda. Milliy naqshlar mebel, devor panellari, dekorativ buyumlarda qo'llanilib, an'anaviylik va zamonaviylik uyg'unligini ta'minlaydi.



Zamonaviy yog'och o'ymakorligi. Bu jarayon milliy madaniyatni asrab-avaylash bilan birga, uni global dizayn tendensiyalariga moslashtirish imkonini beradi. Yog'och o'ymakorlikda qo'llaniladigan naqsh turlari va uslublari o'zbek xalqining boy madaniy merosini aks ettiradi. Geometrik, islmiy va garih naqshlar nafaqat bezak, balki chuqur ramziy ma'noga ega. Ularni ilmiy o'rganish va amaliyotda qo'llash milliy hunarmandchilikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Bulatov S. -Toshkent: Mehnat, 1991
2. O'zbekiston obidalaridagi bitiklar, Qashqadaryo. F.Abduxolliqov, B.Bobojonov, K.Rahimov, B.Aminov//O'zMMF, 2022 yil.
3. K.G'ulomov, Amaliy san'at//Toshkent, "Iqtisod moliya", 2007
4. O'zbekiston amaliy san'ati: kitob albom / Binafsha Nodir.-Toshkent: «San'at» jurnali nashriyoti, 2021.-368-b.
5. Karimov X. Usta Qodir. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981; 6-bet.
6. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1977. M.B.Ahmedov "Yog'och o'ymakorligi". –T.: 2006.